



---

## Bo'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari

---

**Xojamov Ilhomjon Rahmonaliyevich –**

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

E-mail: far.omxkxk@gmail.com | ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-5754-8576>

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Kasbiy madaniyat pedagogning kasbiy kompetensiyalari, axloqiy-etik qadriyatlari hamda reflektiv faoliyati orqali shakllanadigan murakkab tizim sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda kasbiy madaniyatni rivojlantirish uchun shaxsga yo'naltirilgan, tizimli va madaniy-kontekstual yondashuvlar asosiy metodologik tamoyillar sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada xalqaro va milliy pedagogik tajribalar tahlil qilinib, kasbiy madaniyatni shakllantirishning bosqichlari va omillari aniqlangan. Olingan nazariy natijalar pedagogik ta'lim jarayonini takomillashtirish va zamonaviy o'qituvchi shaxsining kasbiy madaniyatini mustahkamlash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi. Maqola pedagogika, ta'lim nazariyasi va kadrlarni tayyorlash sohasidagi mutaxassislar uchun qiziqarli va foydali ilmiy manbadir.

**Kalit so'zlar:** kasbiy madaniyat, pedagog shaxs, kasbiy kompetensiya, reflektiv faoliyat, pedagogik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ta'lim metodologiyasi, madaniy-kontekstual yondashuv, pedagogik rivojlanish, ta'lim sifati.

## Теоретико-методологические основы развития профессиональной культуры будущих педагогов

**Аннотация.** В статье исследованы теоретические и методологические основы развития профессиональной культуры будущих педагогов. Профессиональная культура рассматривается как сложная система, формируемая через профессиональные компетенции педагога, его нравственно-этические ценности и рефлексивную деятельность. В исследовании основные методологические принципы развития профессиональной культуры представлены через личностно-ориентированный, системный и культурно-контекстуальный подходы. В статье проведен анализ международного и национального педагогического опыта, выявлены этапы и факторы формирования профессиональной культуры. Полученные теоретические результаты служат основой для совершенствования процесса педагогического образования и разработки практических рекомендаций по укреплению профессиональной культуры современного учителя. Статья представляет интерес и является полезным научным источником для специалистов в области педагогики, теории образования и подготовки кадров.

**Ключевые слова:** профессиональная культура, педагогическая личность, профессиональная компетентность, рефлексивная деятельность, педагогическое образование, личностно-ориентированный подход, методология образования, культурно-контекстуальный подход, педагогическое развитие, качество образования.

## Theoretical and methodological foundations for the development of professional culture in future educators

**Abstract.** The article explores the theoretical and methodological foundations for the development of professional culture in future educators. Professional culture is interpreted as a complex system formed through a teacher’s professional competencies, moral and ethical values, and reflective activities. The study examines person-centered, systemic, and cultural-contextual approaches as key methodological principles for developing professional culture. International and national pedagogical experiences are analyzed, and the stages and factors influencing the formation of professional culture are identified. The theoretical findings serve as a basis for improving the pedagogical education process and developing practical recommendations to strengthen the professional culture of modern teachers. The article is a valuable scientific resource for specialists in pedagogy, educational theory, and personnel training.

**Keywords:** professional culture, pedagogical personality, professional competence, reflective activity, pedagogical education, person-centered approach, educational methodology, cultural-contextual approach, pedagogical development, education quality.

## KIRISH

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – raqobatbardosh, ijtimoiy faol, yuqori malakali va kasbiga sodiq pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bunday mutaxassislarni yetishtirish jarayonida ularning nafaqat nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalariga, balki kasbiy madaniyat darajasiga ham alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Chunki o'qituvchining kasbiy madaniyati – bu uning shaxsiy qadriyatlari, axloqiy pozitsiyasi, kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabati va pedagogik jarayonni tashkil etishdagi ijtimoiy-ma'naviy mas'uliyatining ifodasidir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha qabul qilgan qaror va farmonlari, xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da kasbiy ta'lim mazmunini tubdan yangilash, pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimini isloh qilish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Bu esa, pedagog kadrlar tayyorlashga doir jarayonlarda ularning kasbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda.

Kasbiy madaniyat tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u o'qituvchining kasbiy etikasini, kommunikativ kompetensiyalarini, tashkiliy-boshqaruv qobiliyatlarini, o'zini doimiy rivojlantirishga bo'lgan intilishini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, pedagoglik faoliyatining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda, kasbiy madaniyatning shakllanishi shaxsiy fazilatlar, kasbiy iqlim, ijtimoiy muhit va pedagogik ta'lim mazmuni bilan uzviy bog'liqidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, bo'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni rivojlantirish masalasi nafaqat amaliy, balki chuqur nazariy-metodologik tahlilni talab etadi.

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni shakllantirish – bu ularning kasbiy faoliyatga tayyorligini chuqurlashtirish, o'z kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglashga yordam berish, mustaqil fikrlash va yangiliklarga ochiqlikni rivojlantirishga qaratilgan tizimli pedagogik jarayondir. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun esa, avvalo, kasbiy madaniyatning nazariy mohiyatini, uni rivojlantiruvchi omillarni, metodologik asoslarni va amaliy yondashuvlarni chuqur o'rganish zarur bo'ladi.

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni shakllantirish masalasi so'nggi yillarda xalqaro va milliy miqyosda dolzarb ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar kasbiy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash, uni shakllantiruvchi omillarni belgilash, o'qituvchi shaxsini tarbiyalash jarayonidagi metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Kasbiy madaniyat ilmiy adabiyotlarda ko'p qirrali tushuncha sifatida talqin qilinadi. Xususan, L.S.Vygotskiy va S.L.Rubinshteynlarning faoliyat nazariyasiga asoslanib, pedagogik faoliyatda kasbiy madaniyat o'qituvchining ijtimoiy faolligi, shaxsiy qadriyatları va kasbiy o'zini anglash darajasining integratsiyasi sifatida izohlanadi. Xorijlik tadqiqotchilar – J.Dewey (1916), P.Freire (1970) va L.Shulman (1986) o'z asarlarida o'qituvchining kasbiy madaniyatini bilim, ko'nikma, qadriyatlar va refleksiya integratsiyasi sifatida baholagan.

Masalan, L.Shulman "pedagogik bilimning asosiy tarkibiy qismlari"ni o'rganar ekan, o'qituvchining nafaqat bilim egasi, balki madaniy-ma'naviy tashuvchisi sifatidagi rolini ham urg'ulagan. Uning fikricha, kasbiy madaniyat – bu o'qituvchining kasbiy bilim va kompetensiyalarining amaliy faoliyatga uyg'un ravishda tadbiq qilinishi.

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Mahalliy olimlar – M.Xolmuhamedov, S.Raximov, G.Jo'rayev

va D.Ermatovlar o'z izlanishlarida pedagogik kasbning ijtimoiy funksiyasi, shaxsiy fazilatlar va professional tayyorgarlikning uzviy bog'liqligiga e'tibor qaratgan. Jumladan, G.Jo'rayev (2020) o'qituvchi shaxsining kasbiy identifikasiysi va o'zini anglash darajasi kasbiy madaniyatning shakllanishida muhim rol o'ynashini asoslagan.

Xalqaro adabiyotlarda esa kasbiy madaniyatning shakllanishi ta'lim tizimining madaniy konteksti, akademik erkinlik darajasi va kasbiy rivojlanish imkoniyatlariga bog'liq ekani ta'kidlanadi. Masalan, OECD (2021) tomonidan chop etilgan "Teaching for the Future" hisobotida, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida reflektiv yondashuv, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy-huquqiy ongning ahamiyati qayd etilgan. Ushbu tamoyillar bo'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni shakllantirishga bevosita daxldordir.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha samarali pedagogik texnologiyalar masalasiga ham bir qator tadqiqotchilar e'tibor qaratgan. Xususan, T.Bush va D.Middlewood (2005) rahbarlik va kasbiy rivojlanish sohasidagi ishlammalarida kasbiy madaniyatning shakllanishida mentorlardan foydalanish, hamkasblik muhitini yaratish va reflektiv amaliyotning ahamiyatini asoslab bergenlar. Ularning fikricha, kasbiy madaniyatni rivojlantirish – bu mustahkam pedagogik hamjamiyatni shakllantirish va o'zaro o'rganishga tayyor muhit yaratish orqali amalga oshadi.

Mahalliy tajribada esa ko'proq an'anaviy yondashuvlar – ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayaniladi. Shu bilan birga, interaktiv usullar, loyihibiy faoliyat, kasbiy portfoliolar, reflektiv kundaliklar joriy etilishi orqali bo'lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish yo'nalishidagi yangi metodologik yechimlar ishlab chiqilmoqda (Karimova Z., 2022).

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini shakllantirish murakkab, ko'p bosqichli va integratsiyalashgan jarayon bo'lib, u shaxsiy, kasbiy, axloqiy va metodik tayyorgarlikning uyg'unlashuvini talab qiladi. Xalqaro tajribalar bu borada zamонави kompetensiyaviy yondashuvni, uzuksiz o'rganish va reflektiv amaliyotni targ'ib qilayotgan bo'lsa, mahalliy izlanishlar esa milliy qadriyatlar, kasbiy tarbiya va shaxsiy mas'uliyat masalalarini ilgari surmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik faoliyatning murakkab, ko'p qirrali jarayon ekanligi inobatga olinsa, bo'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni rivojlantirish masalasini o'rganishda ham ilmiy-tadqiqot metodologiyasining puxta asoslangan bo'lishi muhimdir. Mazkur tadqiqot nazariy-metodologik yo'nalishga ega bo'lib, mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish, mavjud konseptual modellarga tayangan holda yangi yondashuvlarni aniqlash hamda ularning mantiqiy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqot falsafiy, pedagogik, sotsiologik va psixologik metodologiyalarning uyg'unlashgan tamoyillariga asoslanadi. Jumladan: falsafiy asos sifatida holistik (butunlikka asoslangan) yondashuv tanlangan bo'lib, u kasbiy madaniyatni o'qituvchi shaxsining integral sifati sifatida ko'rib chiqadi; pedagogik nuqtai nazardan, tadqiqot shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va kasbiy rivojlanish pedagogikasi tamoyillariga tayanadi; psixologik asos sifatida esa faoliyat nazariyasi (L.S.Vygotskiy, A.N.Leontyev) va shaxsiy o'sish nazariyalari qabul qilingan. Bu yondashuvlar o'qituvchi shaxsini rivojlantirishda ichki motivatsiya va o'zini anglash muhim omil ekanligini asoslaydi.

Mavzuni chuqur o'rganishda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi: Tizimli yondashuv – kasbiy madaniyatni murakkab tizim sifatida ko'rib chiqish, uning tarkibiy qismlarini (axloqiy qadriyatlar, kasbiy kompetensiyalar, shaxsiy mas'uliyat, kommunikativ ko'nikmalar va b.) o'zaro bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi; kompetensiyaviy yondashuv – bo'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni kasbiy

kompetensiyalarning ajralmas qismi sifatida shakllantirishni ta'minlaydi; shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – ta'lim jarayonida talabaning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish orqali kasbiy madaniyatni rivojlantirishga imkon beradi; aks ettiruvchi (reflektiv) yondashuv – o'qituvchi shaxsining o'z faoliyatiga tanqidiy va tahliliy munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantirish orqali kasbiy o'sishni rag'batlantiradi.

Ushbu yondashuvlar uyg'unligida kasbiy madaniyatni shakllantirishda uzluksiz rivojlanish, kasbiy o'z-o'zini anglash va shaxsiy mas'uliyat tamoyillari asosiy metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda ishlatilgan nazariy usullar quyidagilardan iborat: tahlil va sintez – mavjud ilmiy manbalarni o'rganish, tushuncha va kategoriyalarni aniqlashtirish; taqqoslash va umumlashtirish – xalqaro va milliy tajribalarni solishtirish orqali universal va lokal yondashuvlarni aniqlash; model yaratish – bo'lajak pedagoglar kasbiy madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi nazariy modelni ishlab chiqish; deduktiv va induktiv yondashuvlar – umumiyl ilmiy qarashlardan konkret pedagogik xulosalarga, yoki aksincha, empirik kuzatishlardan nazariy umumlashtirishga erishish.

Tadqiqot quyidagi asosiy metodologik tamoyillarga tayanadi: ilmiylik – barcha xulosalar ishonchli nazariy manbalar asosida asoslangan; izchillik va tizimlilik – kasbiy madaniyat tushunchasi tizimli va bosqichma-bosqich o'rganiladi; ob'ektivlik – tadqiqot muallifining shaxsiy munosabatidan holi, ilmiy mezonlarga tayangan holda olib boriladi; innovatsion yondashuv – ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalardan foydalangan holda yangi ilmiy-metodik yechimlar ishlab chiqiladi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari bo'yicha bo'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga oid nazariy-metodologik yondashuvlar chuqur tahlil qilinar ekan, quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy xulosalarga kelindi:

Tadqiqotda kasbiy madaniyat tushunchasi o'qituvchi shaxsining axloqiy qadriyatlari, kasbiy bilim va kompetensiyalari, kommunikativ qobiliyati, ijtimoiy mas'uliyati, o'zini kasbiy nuqtai nazardan anglash darajasi kabi tarkibiy komponentlar birligida izohlandi. Ushbu yondashuv kasbiy madaniyatni shunchaki ma'naviy xulq-atvor darajasi sifatida emas, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishning kompleks mezoni sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, kasbiy madaniyat o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini kasbiy kompetensiyalar bilan integratsiyalashga xizmat qiladi. Bu integratsiya natijasida pedagogik faoliyatga ijtimoiy-ma'naviy yondashuv shakllanadi, bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonida madaniy, etik, axloqiy tamoyillarning ustuvorligini ta'minlaydi. Shuningdek, kasbiy madaniyat – o'qituvchining jamiyatda pedagogik yetakchi sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda ilgari surilgan metodologik yondashuvlar – shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, sistemali, reflektiv va madaniy-kontekstual yondashuvlar uyg'unligida kasbiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi nazariy asoslar sifatida taklif qilindi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak pedagogi nafaqat kasbga tayyorlash, balki uni faol, mas'uliyatli, mustaqil qaror qabul qiluvchi, professional etikani chuqur anglovchi shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga tayanib, kasbiy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi nazariy-konseptual model ishlab chiqildi. Mazkur model quyidagi bosqichlardan iborat deb belgilandi: motivatsion-bilimi bosqich – kasbiy faoliyatga qiziqish uyg'otish, kasbning ijtimoiy ahamiyatini anglash; reflektiv-shaxsiy bosqich – o'zini kasbiy faoliyatda anglash, kasbiy etik me'yorlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish; faoliyatga yo'naltirilgan bosqich – kasbiy vazifalarni mustaqil bajarish, kasbiy muloqot va o'zini rivojlantirishga intilish.

Mazkur model bo‘lajak pedagoglarning kasbiy ijtimoiylashuvi, kasbiy identifikatsiyasi va uzlusiz o‘zini rivojlantirishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida xalqaro adabiyotlarda ilgari surilgan metodik yondashuvlar – masalan, mentorlik tizimi, reflektiv o‘qitish, professional portfoliolar, hamkasblikda o‘qitish amaliyotlari – milliy kontekstga moslashtirilgan holda baholandi. Mahalliy tizimda esa, kasbiy madaniyatni shakllantirishda milliy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan yondashuvlar ustuvor ekanligi aniqlangani bois, ikki tizimning samarali jihatlari integratsiyalashgan konseptual yondashuv asosida tavsiflandi.

Ushbu tadqiqot doirasida o‘rganilgan nazariy-metodologik asoslar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda yangicha qarashlar hamda yondashuvlar tizimini belgilash imkonini berdi. Muhokama jarayonida kasbiy madaniyatning mazmun-mohiyati, u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan metodik yondashuvlar, xalqaro tajribadagi parallel yo‘nalishlar hamda milliy pedagogik kontekstdagi xususiyatlar chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kasbiy madaniyat bu – faqat axloqiy xulq-atvor qoidalari to‘plami emas, balki o‘qituvchining shaxsiy identifikatsiyasi, kasbga sadoqati, professional etikasi, va ijtimoiy mas’uliyatining uyg‘un ifodasidir. Xalqaro adabiyotlarda, xususan, L.Shulman, D.Schön va P.Freire kabi tadqiqotchilarining asarlarida kasbiy madaniyat o‘qituvchining reflektivlik, tanqidiy fikrlash, va ijtimoiy adolatga bo‘lgan munosabati bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Bu esa o‘z navbatida kasbiy madaniyatni shaxsiy fazilatlar, madaniy ong va kasbiy kompetensiyalar majmui sifatida qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Milliy ilmiy manbalarda esa bu tushuncha ko‘proq axloqiy-me’yoriy va tarbiyaviy yondashuv asosida talqin etilgan. Shu bois, xalqaro va milliy talqinlar o‘rtasidagi integrativ yondashuvni ishlab chiqish kasbiy madaniyatni holistik yondashuv asosida rivojlantirishda muhim ilmiy masala sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Muhokama jarayonida aniqlanganki, kasbiy madaniyatni shakllantirishda yagona metodik model yetarli emas. Aksincha, bu jarayon bir necha yondashuvlar uyg‘unligida samarali kechadi. Xususan: shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – talabaning ichki motivatsiyasiga tayanib, ularni o‘zini kasbiy jihatdan anglashga undaydi; reflektiv yondashuv – bo‘lajak pedagogda o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi; kompetensiyaviy yondashuv – kasbiy bilim, ko‘nikma va munosabatlar integratsiyasiga asoslanadi; madaniy-kontekstual yondashuv – kasbiy madaniyatni milliy qadriyatlar, ijtimoiy muhit va madaniy kodlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

Mazkur yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi shaxsning kasbiy shakllanish jarayonini murakkab, lekin samarali model sifatida tasvirlaydi. Bu esa ta’lim jarayonida murakkab kompetensiyalarni samarali tarzda shakllantirish imkonini beradi.

Muhokama jarayonida aniqlanganki, kasbiy madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha mavjud ilmiy-metodik adabiyotlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan, tushuncha mazmunida turlicha yondashuvlar mavjud. Shu bois, kelajakda ushbu yo‘nalishda kasbiy madaniyatni aniqlash indikatorlari, pedagog shaxsining kasbiy-madaniy modeli, bosqichma-bosqich rivojlanish yo‘llari kabi yo‘nalishlarda chuqur nazariy hamda amaliy tadqiqotlar olib borilishi zarur.

## XULOSA

Ushbu tadqiqot doirasida bo‘lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni rivojlantirishga oid nazariy-metodologik asoslar tahlil qilinar ekan, pedagogik ta’lim tizimi doirasida bu masala chuqur va tizimli yondashuvni talab qiluvchi kompleks ilmiy muammo ekani aniqlandi. Kasbiy madaniyat nafaqat o‘qituvchi shaxsining axloqiy-etik xulq-atvorida, balki uning kasbiy kompetensiyalari, madaniy ong darjasи, ijtimoiy faolligi va reflektiv faoliyatida ham namoyon bo‘ladi.

Kasbiy madaniyat tushunchasi pedagog shaxsining axloqiy, kasbiy, kommunikativ va reflektiv komponentlarining o'zaro uyg'unlashuvi sifatida talqin etildi. Bu komponentlarning har biri pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli ishtirok etish, shaxsiy va kasbiy o'sishni ta'minlash, ijtimoiy mas'uliyatni chuqur anglash uchun muhim nazariy asos sifatida ko'rildi.

Kasbiy madaniyatni shakllantirishda qo'llaniladigan metodologik yondashuvlar – shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, reflektiv, kompetensiyaviy va madaniy-kontekstual yondashuvlar – o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilgani bu masalaning murakkab tabiatini va shaxsning ko'p bosqichli rivojlanish talablarini hisobga olishga xizmat qildi. Bunday yondashuvlar nafaqat nazariy asoslarni mustahkamlash, balki amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Kasbiy madaniyatni rivojlantirish bosqichlari: kognitiv-motivatsion, reflektiv-shaxsiy va faoliyatga yo'naltirilgan bosqichlar asosida tushuntirildi. Ushbu bosqichlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik o'qituvchi shaxsining mukammal, madaniy va professional yetuk tarzda shakllanishini ta'minlaydi. Bu model nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki pedagogik amaliyot uchun metodik asos yaratish imkonini beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – Pp. 40.
2. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 1970. – Pp. 183.
3. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – Pp. 320.
4. Shulman L. S. Knowledge and teaching: Foundations of the new reform // Harvard Educational Review. – 1987. – Vol. 57, №1. – Pp. 1–22.
5. UNESCO. Rethinking Education: Towards a Global Common Good? – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – Pp. 140.
6. OECD. Teachers and Leaders in Vocational Education and Training. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 84 p.
7. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. – Boston: Beacon Press, 1984. – Pp. 512.
8. Выготский Л. С. Психология развития человека. – Москва: Педагогика, 1991. – С. 387.
9. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. – С. 304.
10. Жалолов Ж. Педагогик texnologiyalar ва педагогик маҳорат асослари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2010. – Б. 216.
11. Қодиров Н. Педагог шахсининг касбий маданиятини шакллантиришда инновацион ёндашувлар // Таълим ва тараққиёт. – 2022. – №4(2). – Б. 45–51.
12. Набиев А. Педагогик маҳорат ва касбий коммуникация. – Тошкент: Фан ва технология, 2019. – Б. 176.
13. Tuning Project. A Tuning Guide to Formulating Learning Outcomes. – Bilbao: University of Deusto, 2010. – Pp. 58.
14. Vlasova V. K. Professional culture of a teacher: Structure and development factors // Pedagogical Education in Russia. – 2018. – №7. – Pp. 12–18.
15. Hargreaves A. Teaching in the Knowledge Society: Education in the Age of Insecurity. – New York: Teachers College Press, 2003. – Pp. 218.